

3-7 YOSHLI BOLALARDA PSIXIK TARAQQIYOT VA IJTIMOYILASHUV JARAYONLARINING ILMIY-PEDAGOGIK TAHLILI

Qulmatova Muyassar Abdug'affor qizi

Ijtimoiy va Siyosiy fanlar instituti talabasi

Toshkent Shahar Yashnaobod tumani,

MCHJ "Magic kingdom" tarbiyachisi

e-mail:muyassarqulmatova07@gmail.com tel:998993925749

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20697384>

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif 3-7 yoshgacha bo'lgan bolalarning psixologik va ijtimoiy rivojlanish jarayonlari tahlil qilgan. Bolaning shaxs sifatida shakllanishida oila va atrof-muhitning unga ta'siri ko'rib chiqilgan.

Shuningdek, maqolada bolaning ematsional holati, muloqat ko'nikmalari va ijtimoiy munosabatlari rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: bola psixologiyasi, ijtimoiylashuvi, emotsional holat.

Kirish. Bolalik davri inson hayotidagi muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, 3-7 yosh davri bolaning psixologik va ijtimoiy jihatdan shakllanishida katta ahamiyatga ega. Bu davrda bola atrof muhitni anglay boshlaydi, muloqat qilishni o'rganadi va shaxsiy xususiyatlari shakllanadi. Shu sababli bolalarning rivojlanish jarayonini o'rganish muhim psixologik va ijtimoiy rivojlanish sifatida ko'rib chiqiladi. "Maktabgacha yoshga qadar bolalarning psixologik xususiyatlari yuzasidan mulohaza yuritishda kimning ilmiy tadqiqoti va asari bo'lishidan qat'iy nazar, unda vujudga keladigan xohish, istak hamda niyatning qondirilishi individni parvarishlashga (tarbiyalashga) qaror qilgan kattalar tomonidan amalga oshiriladi va boshqariladi "- deydi E.G'oziyev.¹

Kichik maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlarini o'rgangan A.N.Golubevaning fikricha "noqulay sharoitda bolaga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish unda o'jarlikni paydo qiladi. Shuningdek, bu yoshdagi bolalarning o'jarligi doimiy bo'lmaydi, masalan, o'z tengdoshlariga nisbatan o'jarlik qilish ahyon-ahyondagina to'y beradi, ular asosan katta yoshdagi odamlarga, shunda ham muayyan tarbiyachiga yoki oila a'zolarinig birortasiga o'jarlik qiladilar. Bolalardagi o'jarlik barqaror emasligi sababli uning oldini olish mumkinligini uqtiradi.² Zamonaviy psixologiya fanida bolalar rivojlanishini o'rganish muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Chunki maskur davrda yuzaga keladigan psixologik xolatlar kelajakda insonning shaxsiy va ijtimoiy hayotiga katta ta'sir ko'rsatadi. Maqolaning dolzarbligi shundaki, hozirgi globallashuv va raqamli texnologiyalar asrida bolalarning psixologik holati va ijtimoiy munosabatlarida yangi o'zgarishlar ko'zatilmoqda.

Bolalar psixologiyasi – bolaning tug'ilganidan boshlab o'sish va rivojlanish jarayonidagi ruhiy holatlarini o'rganuvchi fan sohasidir.

"E.Erikson bolalarning ijtimoiy va emotsional rivojlanishi haqida nazariya yaratgan olim. Uning fikriga ko'ra: 3-7 yosh atrofidagi bolalar asosan **"Tashabbusga qarshi ayibdorlik hissi"** bosqichini boshdan kechiradilar. 3-4 yosh va 5-7 yosh o'rtasidagi farq;

- 3-4 yoshda bola asosan oila davrasida tashabbus ko'rsatadi.

¹ E.G'oziyev. Psixologiya. Toshkent 1990 y , 49-85b

² A.N.Golubeva. Ontogenez psixologiyasi. 1993y.

- 5-7 yoshga kelib bog'cha yoki maktabga tayyorgarlik muhitida ijtimoiy qoidalarini o'rganadi, boshqalar fikriga ko'proq ahamiyat bera boshlaydi".³

J.Piaget bolalar aqliy rivojlanish nazariyasini yaratgan olim va bir necha bosqichlarga ajratgan. Uning fikriga ko'ra: "bolalarning fikirlash jarayoni yoshga qarab o'zgarib boradi. Bolaning **ko'rish, eshitish, his qilish, ta'm va hid sezish** qobiliyatlari faol rivojlanadi. Bolaning dunyo haqidagi tajribasi asosan **sezgilar orqali** shakillanadi".⁴

Bola ulg'aygan sari psixologik tor muxitdan asta sekinlik bilan kengaygan psixologik muxitga o'tadi. Bunda bola o'z yoshida yani, avval bog'cha yoshigacha keyin bog'cha yoshi va maktab yoshlarida o'z psixologik aurasini kengaytiradi.

Rus pedagoglaridan P.F.Lesgaftning fikricha, insonning maktabgacha yoshidagi davri shunday bir davrki, ana shu davr mobaynida kelgusida qanday xarakter xislatlari paydo bo'lishi belgilanadi va axloqiy sifatlarining asoslari yuzaga keladi.⁵ A.S.Makarenko bolalarni juda kichik davridan boshlab tarbiyalash zarurligi haqida gapirib, tarbiyaning eng muhim asoslari bolaning besh yoshgacha bo'lgan davri mobaynida yuzaga keltiriladi. Mana shu davrda qilingan butun tarbiya, tarbiya jarayonining 90% ini tashkil etadi, degan edi. Haqiqatan ham bolaning maktabgacha yoshidagi davri shu qadar mazmundor va faol davrdirki, bu davr bolaning kelgusi o'sishida albatta o'z aksini qoldiradi. Shuning uchun maktabgacha yoshidagi davr ta'sir o'tkazish kuchi jihatidan g'oyat mas'uliyatlidir.

Bu bosqichda bola:

- Bog'cha muhitiga moslashadi;
- Do'st ortiradi;
- O'yin orqali ijtimoiy tajriba to'laydi.⁶

O'yin bolalar psixologiyasida muhim faoliyat hisoblanadi. Bolalar rolli o'yinlar orqali jamiyat qoidalarini o'rganadi.

Shu davrda :

- qo'rquv;
- qiziqish;
- mustaqillik;
- rashk

kabi emotsiyanal xolatlar shakillanishi mumkin.

Ota- ona bola uchun birinchi ustoz hisoblanadi. Ular bolaga nafaqat bilim, balki axloq, qadriyatlar va an'analarni ham o'rgatadi .

Bolalar tarbiyasi ko'p qirrali bo'lib, bolaga halollik, mehr-oqibat, xurmat, ma'suliyat kabi insoniy fazilatlarini singdirish, taffakurni rivojlantirish, bilim olishga qiziqish uyg'otish, go'zallikni his qildirish, san'atga qiziqish, atrof-muhitga ehtiyotkor munosabatni rivojlantirish, jamiyat qoidalariga rioya qilish, boshqalar bilan muloqat qilish va hamkorlik qilishni o'rgatish.

Bolalar – oilaning ma'naviy boyligi va jamiyatning kelajagidir.

³ E. Erikson. Psixosotsiyal rivojlanish nazariyasi. New York: Norton, 1950y.

⁴ J. Piaget The Psychology of the Child.- New York: Basic Books, 1969y.

⁵ P.Lesgaft. Family Education of the Child and Its Significance.- Saint Petersburg, 1906.

⁶ A. Makarenko. The Pedagogical Poem.- Moskow, 1935y

Oila qanday bo'lishidan qat'iy nazar, inson o'zini o'zi rivojlantirishi mumkin. Farzand qanday oiladan to'g'ilishidan qat'iy nazar ilm olishi va uni rivojlantirishiga mutloqa haqlidir.

TADQIQOT TAHLILI

Tadqiqot davomida 55 nafar ota-ona va 25 nafar boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'rtasida so'rovnoma o'tkazildi.

Bunda bolaning tarbiyasi, xulq-atvori va o'qish jarayonlari umumiy qilib o'kazildi.

Natijalarga ko'ra:

- 68 % ota-onalar bolalar telefonidan ortiqcha foydalanishini aytdi;
- 72 % o'qituvchilar ijtimoiy faol bolalar darsni yaxshi o'zlashtirishini takidlagan;
- 54 % bolalarda internetga qaramlik belgilari ko'zatilgan.

Shuningdek bolalarning kunlik ekran vaqti 3 soatdan yuqori ekanligi, 48 % ota-ona bolalarda asabiylik va diqqat pasayishi holatlari tadqiqot davomida kuzatildi.

Bollarning diqqatlilikini tekshirish maqsadida psixologik test o'tkazildi. Bu ko'rsatkichlar raqamli texnologiyalarning bolalar psixologiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatayotganini anglatadi.

Hozirgi kunda telefon va gadjetlar bolalar hayotining bir qismiga aylanib ulgurgan. Ulardan to'g'ri foydalanilsa - o'rgatadi, noto'g'ri nazoratsiz ishlatilsa - psixologik, nutqiy va ijtimoiy rivojlanishga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Telefon va gadjetlarning bolaga ta'sirini ko'rib chiqadigan bo'lsak, ijobiy tomonlari - to'g'ri me'yorda va nazorat bilan ishlatilsa, ta'limiy vediorlar orqali o'rganadi, til va xotira rivojlanishi mumkin, ijodiy fikirlash kuchayadi, rasm chizish dasturlari foydali bo'lishi mumkin, salbiy ta'sirlari - nutq kechikishi ayniqsa 0-3 yoshda, bola jonli muloqat o'rniga ekranga ko'p qarasa; kam gapiradi, so'z boyligi sekin rivojlanadi, muloqat ko'nikmasi pasayadi. Chunki til rivoji ekranga emas, inson bilan muloqatdan shakillanadi. Diqqat va sabirning pasayishi: qisqa videolar miyani tez stimulg'a o'rgatadi, darsga diqqatni uzoq jamlay olmaydi, kitob o'qishga qiynaladi, jahl va qaramlik, yaniy baqirish, asabiylik. Bu do'famin ta'siri bilan bog'liq - miya tez- tez "qiziqarli stimul" talab qiladi. Ijtimoiy rivojlanishiga ta'sir; do'stlashishni kamaytiradi, his-tuyg'uni anglashni susaytiradi, yolg'izlikka o'rgatishi mumkin. Mamalakatimizda so'ngi yillar mobaynida maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Sog'lom va har tomonlama rivojlangan avlodning shakillanishini ta'minlashga qaratilgan samarali maktabgacha ta'lim tizimini tashkil qilish bo'yicha qabul qilingan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar bunga yaqqol misol bo'la oladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261 qarorida maktabgacha yoshdagi bolalarni uyg'un rivojlantirish hamda sifatli maktabgacha ta'limini tashkil e'tish bo'yicha vazifalar belgilangan.

Xulosa qilib aytganda, 3-7 yosh davri inson hayotidagi eng muhim psixologik va ijtimoiy rivojlanish bosqichi hisoblanadi. Bu davrda oila, ta'lim muassasasi va ijtimoiy muhit bola shaxsinig shakillanishida asosiy o'rin tutadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, sog'lom psixologik muhit va to'g'ri tarbiya bolalarning intellektual hamda ijtimoiy rivojlanishiga ijtimoiy ta'sir ko'rsatadi. 3-7 yosh bolalarda psixologik va ijtimoiy rivojlanish juda tez kechadi. Shu davrda bolaning fikirlash, his-tuyg'ulari, o'zini tutishi va atrofdagilar bilan munosabati shakillanadi. Hozirgi zamon bolalarini ta'lim va tarbiyaga jalb qilish uchun eski "faqat buyrug' berish" usulidan ko'ra, qiziqtirish, muloqat va namuna ko'rsatish muhimroq hisoblanadi. Boladagi 0-3 yoshgacha "ishonch va xafsizlik davri" bo'lib - ota-onaga qattiq bog'lanadi, ovoz, mehr va munosabat orqali o'rganadi, taqlid qilishni boshlaydi. Bunda nima

qilish kerak?- eng avvalo bolani ko'proq quchoqlash kerak, telefon o'rniga jonli o'yinlarni ko'paytirib, jonli muloqat qilish. 3-6 yoshda qiziqish va xarakter shakllanish davri: bu paytda bola Nega? degan savollarni ko'p beradi, mustaqillikga intiladi, do'stlashishni o'rganadi. Bu borada bolaga samarali tarbiya usullaridan- o'yin orqali ta'lim berish, kichik ma'suliyatlar berish (o'yinchoq yig'ish, suv qo'yish, kitob joylash) bolalarda yana bir hislat borki tanqid emas, balki maqto'vni ko'proq qilish kerak.

Zamonaviy bolalar tez zerikadi. Shuning uchun qisqa va qiziq mashg'ulotlar, rangli vizual materiallar, harakatli o'yinlar yaxshi samara beradi.

Xulosa qilib aytganda hozirgi bolalarni har xil gadjetlardan himoyalashning samarali vositasi bu o'qiyotgan darsligini o'yin yoki hayotiy tarzida ko'rsatib berish bu bolaning to'g'ri o'sishiga samarali yordam beradi. Eng kuchli tarbiya bu- ota-onaning namunasidir.

Ota-onalar uchun tavsiyalar:

1. Bolalar bilan ko'roq jonli muloqat qilish, o'yin orqali har-xil sujetlar bilan bolaning o'z tilida gapirib qanaday istak- xohishlari borligini bilib olish.
2. Internetdan foydalanish vaqtini cheklash: yani bunda mutloqa bermay qo'ymaslik emas, bola gadjetdan foydalanayotganda ota-ona kelishuv asosida ma'lum vaqtgacha foydalanishiga ruhsat berishi, bunda bola hayotda ham kelishuvlar borligini va undan qanday foydalanish, qayerlarda ishlatilishini o'rganadi.
3. O'yin va ijodiy mashg'ulotlarni ko'paytirish: bolaning o'zi qiziqqan mashg'ulotiga berish, ham aqlan ham jismonan etuklikga chiqishi. Ota-ona o'z farzandlarini qiziqishlarin to'g'ri baholay bilishi kerak, shunda ko'zlangan maqsadga etishishi mumkin.
4. Maktab va oila hamkorligini kuchaytirish: ota-ona va sinf rahbari o'rtasida muloqatni keskin kuchaytirish, bolaning ta'lim jarayonini kuzatib, o'zgarishlarini bilib borishi va sabablarini qidirib topishi.
5. Bolalar psixologi maslahatlaridan foydalanishi: har doim ota-ona farzandida kechayotgan o'zgarishlarni ko'zatib borishi va bu borada sinf rahbarini ogohlatirishi zarur.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. E.G'oziev Umumiy psixologiya.- Toshkent, 2019y. 78-102b.
2. J. Piaget The Psychology of the Child.- New York: Basic Books, 1969.
3. L.S. Vigotsky Mind in Society. – Cambridge: Harvard University press, 1978y
4. A. Makarenko. The Pedagogical Poem.- Moskow, 1935y
5. P.Lesgaft. Family Education of the Child and Its Significance.- Saint Petersburg, 1906.
6. E. Erikson. Psixosotsiyal rivojlanish nazariyasi. New York: Norton, 1950.